

## **Korruptsiyaga qarshi kurash – davr talabi**

Tezkor va shiddatli davrda yashayapmiz. Eng asosiysi, vaqt bizni hech qachon kutib turmaydi. Har bir sohada bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan ishlar zamirida inson va uning manfaatlari yotadi. Zero, bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti yuksalishida yurtimizning jahon hamjamiatida o‘z o‘rni borligi quvonarli hol. Demak, erishilayotgan yutuqlar o‘z-o‘zidan bo‘layotgani yo‘q. Uning ortida xalqimizning mashaqqatli mehnati bor. Ana shunday muvaffaqiyatlarga erishishda to‘g‘rilik, sof vijdonlik, davlat mulkiga xiyonat qilmaslik kabi xislatlar asosiy o‘rin tutishini juda yaxshi bilamiz. Lekin, ayrim hollarda yuqoridagi xislatlarga amal qilmagan shaxslar jinoyatga qo‘l uradilar. Xulosa qilib aytganda, bunday jinoyatlar ko‘chasi korruptsiya atamasini ifoda etadi.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, "Bugungi kunda faqat iqtisodiyotga emas, balki, eng avvalo, respublikaning siyosiy va xalqaro nufuziga, jamiyatimizning ma’naviy-axloqiy nufuziga katta zarar yetkazayotgan eng xavfli illat – korruptsiyadir. U ayrim hollarda o‘ta xavfli tusga kirmoqda". Yurtboshimizning yuqoridagi fikrlaridan kelib chiqqan holda har qanday jinoyatchilik ma’lum bir sabab va shart-sharoitlar ta’sirida vujudga keladi. Korruptsiya va uni vujudga keltiruvchi sabablar o‘rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud. Bundan xulosa shuki, birinchidan, korruptsiyani faqat uni vujudga keltiruvchi sabablar va shart-sharoitlarni yechish yo‘li bilan kamaytirish hamda cheklash mumkin; ikkinchidan, bu muammolarni yechishda korruptsiyaga qarshi barcha yo‘nalishlarda qat’iy va murosasiz kurash olib borish samara beradi.

Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, har qanday holatda ham korruptsiyadan bevosita jamiyat va insonlar aziyat chekadi, zarar ko‘radi. Shuning uchun ushbu muammo global bo‘lib, unga qarshi kurashning davlatlar o‘rtasida muvofiqlashtirilgan dasturlari va boshqa huquqiy me’yorlari ishlab chiqilganligi bejiz emas.

Korruptsiyaga qarshi kurash sohasida xabardorligi darajasini oshirish va ularga axborot berish maqsadida joriy yilning 19-aprel kuni O’zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligida “Korruptsiyaga qarshi kurash – davr talabi” mavzusiga bag‘ishlangan tadbir bo‘lib o‘tdi. O’zbekiston Respublikasi “Ma’naviyat targ‘ibot markazi”ning huquqiy targ‘ibotlar bo‘yicha katta inspektori Muhammadali Eshnazarovning ma’ruzasi tinglandi. “Korruptsiya” atamasi “buzish, pora evaziga og‘dirish” degan ma’noni anglatadigan lotincha “corruptio”

so‘zidan kelib chiqqan. Yuridik tilda “korruptsiya – mansabdar shahslar tomonidan ularga berilgan huquqlar va hokimiyat imkoniyatlaridan shahsiy boylik ortirish uchun foydalanishda ifodaluvchi siyosat yoki davlat boshqaruvi sohasidagi jinoiy faoliyat”, - deydi Muhammadali Eshnazarov.

So‘nggi yillarda butun dunyoda, shu jumladan, yurtimizda ham korruptsiyaga qarshi kurash masalasi davlat va jamiyatning eng dolzarb muammosi sifatida talqin etilmoqda. Barcha davlatlarda ham bu kabi masalalar qattiq qoralanmoqda. Pora olganlik uchun javobgarliklar qanchalik kuchli bo‘lmisin, jamiyatdan bu illatning sug‘irilib chiqishi juda qiyin bo‘lmoqda. Korruptsiyaga qarshi kurashda nafaqat davlat organlari, balki jamiyat va umuman fuqarolarimiz ham o‘zini ma’sul deb hisoblash kerak.

Ma’ruzachi, korruptsiya mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga putur yetkazuvchi, demokratik institutlarni zaiflashtiruvchi, ijtimoiy tartibni buzuvchi va jamiyat ishonchini poymol etuvchi illat sifatida e’tirof etib, uning oldini olish va unga barham berishda davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va fuqarolik jamiyati o‘zaro hamkorligining zarurligini ta’kidladi.

Aytish joizki, korruptsiyaga qarshi kurashishga faqat jinoyat-huquqiy vositalar bilan erishib bo‘lmasligini hayotning o‘zi ko‘rsatmoqda. Bu illatga qarshi kurashda nafaqat davlat organlari, balki jamiyat va umuman barcha fuqarolarimiz mas’uldirlar. Davlat va jamiyat idoralari, jamoatchilik tashkilotlari korruptsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashda birgalikda harakat qilsa, bu birdamlik o‘z samarasini beradi.

Tadbir davomida korruptsiya tushunchasining mazmuni, korruptsiyaga qarshi kurash tarixi, O’zbekistonda korruptsiya jinoyatlarining sabablari va uning oldini olish masalalari hamda korruptsiyaga qarshi kurash borasidagi xalqaro amaliyotlari haqida atroflicha ma’lumotlar berildi.

Istiqlol bergen tinch va osuda hayotimiz, farovon turmush tarzimiz, erishayotgan turli sohadagi yutuqlarimiz, ayniqsa yosh avlod kamoloti yo‘lida qilinayotgan ezgu ishlarni har qancha e’tirof etsak, arziydi. Albatta, bunday havas qilsa arzigelik kunlarga yetishishning o‘zi bo‘lmayotganligi va buning zamirida mashaqqatli mehnat yotganligi hech birimizga sir emas. Bugungi kunda qaysi bir sohaga e’tibor qaratmaylik, ularning har birida yuqori samaradorlikka erishayotganligimiz, bu bunyodkor xalqimizning o‘z Vataniga bo‘lgan mehr-muhabbatidan dalolat beradi.

Mamlakatimiz mustaqilikka erishgan ilk davrdayoq korruptsiyaga qarshi kurashish masalasiga umumdavlat miqyosidagi vazifa sifatida qaraldi va uning oldini olish, davlat apparatini korruptionerlardan tozalash bo‘yicha izchil va muntazam ishlar olib borilmoqda.

Mazkur illatga qarshi kurashishda nafaqat davlat organlari, balki, jamiyat, umuman olganda esa, barcha birdek mas’ul bo‘lib, davlat organlari va fuqarolarning sa’y-harakatlarini birlashtirgan holdagina samarali natijalarga erishish mumkin.

Tadbirda Agentlik Markaziy apparati, ATRNTT Respublika markazi, Avtodaryotrans-Ilm davlat ilmiy-metodik markazi, Agentlikning Toshkent shahri va viloyati hududiy bo‘limlari xodimlari ishtirok etishdi.